



**QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

**INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMAN
materiallari asosida tayyorlangan**



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

Meliyeva Nargiza Eshboyevna

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit 603

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari 604

Xushmuradov Oman Nomazovich

Молиявий ҳисоботларда товар-моддий захиралар ҳисобини

халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш 611

Алимханова Нигора Алимхановна

Joriy aktivlarning xalqaro standartlar asosida hisoblanishi va buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari 617

Bobobekov Baxrom Kaxharovich

Aktivlar tarkibida investitsion aktiv va uning hisobini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati 622

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish 629

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Автотранспорт воситаларидан фойдаланишнинг баҳолаш ёндашувлари 636

Норқобилов Жаҳонгир

Fermer xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda barqaror rivojlanish tamoyillari va yashil iqtisodiyot 641

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

Korxonalarda moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olishning o'ziga xos jihatlari 647

Butunov Shaymardon Berdiyovich

Farmasevtika korxonalarida daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari .. 654

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna

Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб қувватлаш йўналишлари 659

Қурбонов Алишер Бобоқулович, Абдуллаев Жасур Жабборович

Moliya, kredit va investitsiya 666

Liberalization and integration of the financial sector of the republic of Uzbekistan into the global economy 667

Rustam Farmonovich Omanov

Tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini ta'minlashning kapital tarkibini shakllantirish va riskliligini baholash 672

Raxmanov Ilxom Xurramovich

Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni amalga oshirish yo'llari 681

Yulduz Murtazaevna Khasanova, Z.O. Rasulova

Mahalliy budjet xarajatlari tarkibi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri 686

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Soliqlarning korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini baholash masalalari 694

Babaxonov Ja'far Muxiddinovich

Qoramol go'shti ishlab chiqarishning dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlariga ta'sirini baholash 699

Qalandarov Ravshan Husanovich

Davlat moliyaviy siyosatini raqamlashtirish maqsadlarini belgilashga tashkiliy-iqtisodiy yondashuv 705

Kolesov Aleksandr Semenovich

Yevropa sug'urta kompaniyalarining tabiiy xavflarni baholash bo'yicha innovatsion tadqiqot tajribasi 711

Oxrimenko Igor Viktorovich

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiya va investitsion muhitning o'rni 716

Shodiyev Bekzod To'lqinovich, Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li

O'zbekistonda islomiy moliya tizimi va bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari 723

Rajabova Gulnur Bobomurod qizi

Neft-gaz korxonalarida "investitsion faoliyatni moliyalashtirish"ni takomillashtirishda

"investitsiyalar" larning ahamiyati 730

Korxonalarda moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olishning o'ziga xos jihatlari

Butunov Shaymardon Berdiyovich

Особенности учета финансовых обязательств на предприятиях по международным стандартам

Бутонов Шаймардон Бердиевич

Specific aspects of accounting for financial liabilities in enterprises based on international standards

Butunov Shaymardon Berdiyovich

Received: October 12, 2025 Revised: October 16, 2025 ■ Accepted: October 19, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida hisobni yuritish borasida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning yondashuvlari, shuningdek, xalqaro standartlarda uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olish tamoyillari tadqiq qilindi.
- **Kalit** so'zlar: majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar, nomoliyaviy majburiyatlar, shartli majburiyatlar, baholanadigan majburiyatlar, kafolat bo'yicha majburiyatlar.
-
- **Аннотация:** В статье рассматриваются подходы зарубежных и отечественных экономистов к учету обязательств на основе международных стандартов, а также принципы признания, оценки и учета долгосрочных активов в международных стандартах.
- **Ключевые** слова: обязательства, финансовые обязательства, нефинансовые обязательства, условные обязательства, оценочные обязательства, гарантийные обязательства.
-
- **Abstract:** This article examines the approaches of foreign and domestic economists to accounting for liabilities based on international standards, as well as the principles of recognition, valuation, and accounting for long-term assets in international standards.
- **Key** words: obligations, financial obligations, non-financial obligations, conditional obligations, valuation obligations, guarantee obligations.

KIRISH

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi hozirgi kunada mamlakatimizda buxgalteriya hisobini MHXSlari asosida yuritish o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Buxgalteriya hisobini MHXSlari asosida yuritish dunyo bozorlariga chiqish, xorijiy investisiyalarni mamlakatga jalb qilish uchun qo'lay investitsion muhitni yaratadi, dunyo xom-ashyo va valyuta birjalarida o'z o'rnini topish, aktsiyadorlarni korxonalariga investitsiya kiritishga jalb etish, hisobotlarning haqqoniyligiga erishishni ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o'tishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilindi [14].

Mazkur qarorni amaliyotga tadbiriq qilish maqsadida moliyaviy hisob va hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarni shakllantirish va sifatini oshirish maqsadida uning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga moslashtirish, axborotlarga qayta ishlov berish va ularni foydalanuvchilarga etkazishda eng samarali usul va uslublardan foydalanish, xalqaro tajribalar va standartlarini foydalangan holda hamda MHXSlar talablariga to'liq mos keladigan takomillashgan moliyaviy hisobotning namunaviy formatlarini yaratish va amaliyotga tadbiriq qilish kun tartibida turgan dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbalari qatoriga ularning buxgalteriya hisobi ma'nosidagi majburiyatlari kiradi. Huquqiy majburiyat shartnoma tuzilgan paytdan yuzaga keladi. Odatda, buxgalteriya majburiyatlari o'tgan davrdagi hodisalar va operatsiyalar bo'yicha yuzaga keladi. Masalan, tovar va xom-ashyolar xarid qilinganda uning pulini to'lash bo'yicha majburiyat tug'iladi. Xuddi shuningdek, o'tgan faoliyatga oid soliqlar hisoblanganda byudjet oldida majburiyat tug'lsa, ishchilarga haqiqatda ishlagan ish kunlari yoki bajargan ishlariga qarab ish haqi hisoblanganda ish haqi to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga keladi.

R.H.Hermanson majburiyatlarga quyidagicha ta'rifni keltiradi: "Majburiyatlar – o'tgan operatsiyalar natijasida yuzaga keladi va kelgusi davrlarda pul to'lash, xizmatni ta'min etish yoki tovarlarni yetkazib berish bo'yicha javobgarliklar"[12].

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi beshinchi xatboshida "majburiyatlar taraflarning kelishuviga muvofiq pulda ifodalangan holda

aks ettiriladi" [1] deb qayd qilingan.

Bugungi kunda xalqaro kontseptual asoslarning yangi tahririda majburiyatlarga bergan ta'rifni keltiramiz: "Majburiyatlar – bu korxonada faoliyatida o'tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan haqiqiy to'lanadigan schyotlari hisoblanib, ularning so'ndirilishi (uzilishi) iqtisodiy nafni mujassamlantiruvchi korxonada resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi" [13].

37-son BHXSda belgilangan qoidalarning to'g'ri talqin qilinmasligi natijasida axborotdan foydalanuvchilarga ularning xarakterini, vaqtini va qiymatini tushunishi uchun yetarlicha ma'lumotlar bilan ta'minlanmayapdi. Bu esa, ularni hisobini yuritish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" [5].

S.N.Tashnazarov kafolat bo'yicha majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida satrda aks ettirishni taklif etadi: "Ikkinchidan, amaldagi boshqa kreditorlik qarzlari guruhiga kiruvchi majburiyatlarning tarkibidan bir qancha majburiyatlar, jumladan kafolatlar, foizlar, royalti bo'yicha majburiyatlar, uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismi har biri alohida balans modda sifatida ajratildi" [10]. Bu takliflar xalqaro standartlar talablariga muvofiq keladi deb hisoblaymiz.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, mualliflar baholangan majburiyatlarning u yoki bu jihatlari ochishga harakat qilishgan, lekin uning barcha jihatlari mujassamlantiruvchi ta'rif, tan olish va hisoblarda aks ettirish usullarini bayon qiluvchi ishlar yetarli emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobining asosiy ob'ektlaridan hisoblangan majburiyatlarga oid axborotlarning shaffofligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirishning muhim manbalari qatoriga majburiyatlari kiradi.

Majburiyatlar – bu tashkilotning o'tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy resurslarini uzatish bo'yicha huquqiy majburiyatlari bo'lib, uning so'ndirilishi tashkilotda muqarrar iqtisodiy nafni o'zida mujassamlantirgan iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga yoki yangi majburiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi [11].

Ushbu ta'rifdan asosan, korxonalarda xo'jalik momalalari natijasida hosil bo'lgan majburiyatlarning quyidagi ikkita xususiyatini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- korxonaning majburiyati, u kimga va qanday shartlar asosida amalga oshirilishi kelgusida aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmatlarni ko'rsatish orqali bajarish mumkin bo'ladi;
- majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi voqiya-hodisa yuz

bergan va bu majburiyat amal qiladi va hali tugallanmagan bitimlar natijasida yuzaga kelmaydi.

Majburiyatlar ma'lum belgilariga ko'ra tasniflanadi. Ularning tasniflanishini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (1-jadval):

1-jadval

Majburiyatlarning turli mezonlar bo'yicha tasniflanishi

TASNIFLASH MEZONLARI	MAJBURIYATLARNING TURLARI
Qarzdorlikning to'lov muddati davomiyligi bo'yicha	Qisqa muddatli majburiyatlar
	Uzoq muddatli majburiyatlar
Moliyaviy instrument sifatidagi tavsifiga ko'ra	Moliyaviy majburiyatlar
	Nomoliyaviy majburiyatlar
Asosiy jarayonga bog'liq holda yuzaga kelishiga ko'ra	Savdo majburiyatlari
	Nosavdo (boshqa) majburiyatlar
Shartlilik mezoniga ko'ra	Shartli majburiyatlar
	Shartli bo'lmagan majburiyatlar
Faoliyatga oidligiga ko'ra	Operatsion faoliyat bilan bog'liq majburiyatlar
	Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq majburiyatlar
	Investitsiyaviy faoliyat bilan bog'liq majburiyatlar
Tomonlarning bog'liqligiga qarab	Bog'liq tomonlar (sho"ba, qaram va alohida ajratilgan bo'linmalar) bilan yuzaga kelgan majburiyatlar
	Bog'liq bo'lmagan tomonlar bilan yuzaga kelgan majburiyatlar
Muddati bajarilishiga qarab	Muddatidagi qarzdorliklar
	Muddati o'tgan qarzdorlik
Yuzaga kelish ehtimoli baholanishiga qarab	Muddati uzaytirilgan qarzdorlik
	Haqiqiy (sof aniqlanadigan) majburiyatlar
	Baholanadigan majburiyatlar
	Tasodifiy majburiyatlar

Mamlakatimizda korxonalarining moliyaviy hisobotlarida uzoq muddatli kredit qarzlari yildan yilga oshib kelmoqda. Ayniqsa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida asosiy vositani sotib olish, bino qurish, xom-ashyoni sotib olish, elektr energiya va ishchi kuchidan foydalanish uchun yirik mablag' sarflanadi. Bu esa xorijiy investorlar va kreditorlardan yirik sarmoyalar kiritilishini talab qiladi. Buning natijasida korxonalar qarz, zaym, kreditlar olib yildan-yilga biznes jarayonini va ish

faoliyatini tartibga solishga harakat qiladi, bu esa har bir tarmoqda majburiyatlarning oshib ketishiga imkon beradi va bu jarayonlar standart orqali tartibda solinadi.

32-sonli MHXS "Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni taqdim etish" standartiga muvofiq moliyaviy majburiyatlar tushunchasi kiritilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif keltirilgan:

Moliyaviy majburiyatlar – bu shartnoma bo'yicha har qanday

majburiyat: (a) boshqa korxonalariga pul mablag'larini yoki boshqa moliyaviy aktivlarni taqdim qilish; (b) boshqa korxonalar bilan potentsial nafsiz shartlarda moliyaviy instrumentlarni almashtirish; (s) hisob - kitoblar, qaysiki xususiy hissali instrumentlar hisobidan amalga oshadi yoki amalga oshishi mumkin [5].

Yuqoridagi majburiyatlarning barcha tasnifiy asoslarini


hisobga olgan holda majburiyatlarga oid axborotlarni buxgalteriya balansida joylashtirishda ma'lum tartib qoidalarga rioya qilishimiz lozim bo'ladi. Milliy va xalqaro standartlarda buxgalteriya balansida majburiyatlarga doir aks ettirilishi lozim bo'lgan axborotlar qatoriga quyidagilar kiritilgan (2-jadval):

2-jadval

Buxgalteriya balansida majburiyatlarga doir axborotlar

1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" [6]	1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" [7]
77.7 kreditorlik qarzi (k)	savdo va boshqa kreditorlik qarzlari
77.8 Ajratmalar	(l) rezervlar
77.9 Foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar	(m) moliyaviy majburiyatlar (k) va (l) quyi punklarida ko'rsatilgan summalardan tashqari
77.10 O'z sarmoyasi va zaxiralari	(o) 12-son MHXS "Foyda solig'i" standartiga muvofiq soliqlar bo'yicha majburiyatlar
	(p) 5-son MHXSga sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan chiqib ketayotgan guruhlariga kiradigan majburiyatlar

Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari



1-rasm. Savdo va boshqa kreditorlik qarzlarning tasnifi.

Ushbu jadval ma'lumotlari ko'rinib turibdiki, asosiy kreditorlik qarzi bu savdo va nosavdo kreditorlik qarzlariga ajratilgan. Buxgalteriya balansida majburiyatlar tarkibini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishimiz uchun dastavval uning tasnifini ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi (1-rasm): Ushbu tasnifdan kelib chiqib, buxgalteriya balansini majburiyatlarga oid qismini quyidagi tartibda aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval):

Ushbu jadvalda keltirilgan holatni tahlil qiladigan bo'lsak, xalqaro standartlarda majburiyatlarga oid aks ettirilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarga beshta ko'rsatkich kiritilgan. Unda qayd qilinishi bo'yicha majburiyatlar savdo va boshqa qarzar, boshqa moliyaviy majburiyatlar, rezervlar, soliq bo'yicha majburiyatlar alohida qayd qilinishi ko'rsatilgan. Soliqlar bo'yicha majburiyatlarda foyda solig'i bo'yicha qarzdorlikni alohida ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagi keltirilgan format bir qancha afzalliklari bilan ajralib turadi. Taklif qilingan formatda majburiyatlarni uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarga tasniflash,

ularning tarkibini savdo va nosavdo kreditorlik qarzlariga ajratish, rezervlar, joriy soliq majburiyatlari (foyda solig'idan tashqari), foyda solig'i bo'yicha majburiyatlarga ajratish, muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari kabi moddalarni kiritish taklif etildi. Ushbu uslubiy yondashuvlar buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga hamda uning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyati davomida majburiyatlar tushunchasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo'llanilgan majburiyatlar tushunchasi bilan taqqoslanganda, bir qancha farqlar aniqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining to'liq oshkor qilish, moddiylik, ehtiyotkorlik tamoyillari asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi

BUXGALTERIYA BALANSINING TAKLIF QILINGAN SHAKLIDA	SATR KODI	HISOBOT DAVRI BOSHIGA	HISOBOT DAVRI OXIRIGA
I. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+530+570)	490	1489967	13215257
Uzoq muddatli savdo kreditorlik qarzlari (510+520), jumladan:			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan uzoq muddatli savdo qarzlari	510		
Bog'liq tomonlar (ajratilgan bo'linmalar, sho"ba va qaram xo'jalik jamiyatlari) bilan uzoq muddatli savdo qarzlari	520		
Uzoq muddatli nosavdo kreditorlik qarzlari (540+550+560):	530		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan nosavdo qarzlari	540		
Xaridor va buyurtmachilardan uzoq muddatli olingan bo'naklar	550		

Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzarlar	560	1489967	13215257
Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari	570		
Qisqa muddatli majburiyatlar, jami (sitr 590+620+670+680)	580	44186	184353
Savdo qisqa muddatli majburiyatlar (600+610):	590	3955	200
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qisqa muddatli savdo qarzarlar	600	3955	200
Bog'liq tomonlar (ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram korxonalar) bilan qisqa muddatli savdo kreditorlik qarzlari (6110,6120)	610		
Nosavdo kreditorlik qarzlari (630+640+650+660):	620	28126	158340
Ta'minotchi va buyurtmachilar bilan nosavdo operatsiyalar bo'yicha qarzlari	630	4515	4514
Xaridor va buyurtmachilardan qisqa muddatli olingan avanslar (6300)	640		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzarlar (6700)	650	23611	93493
Qisqa muddatli bank kreditlari (qarzarlar) bo'yicha qarzarlar (6810-6840)	660		60333
Joriy soliqlar va majburiy to'lovlar (foyda solig'idan tashqari) bo'yicha qarzarlar (6400)	670	12105	25813

Foyda solig'i bo'yicha qarzlار (6400)	680		
2-bo'lim bo'yicha jami (490+570)		1534153	13399610

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Butunov Shaymardon Berdiyrovich, Qarshi davlat texnika universiteti, katta o'qituvchi / Бутунов Шаймardon Бердиеврович, Каршинский государственный технический университет, старший преподаватель / Butunov Shaymardon Berdiyrovich, Karshi State Technical University, senior teacher
 ▶ berdiyurovshaymardon@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0004-1998-7404>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016- yil 13-aprel, O'RQ-404-son. <https://www.lex.uz/acts/2931253>
 [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.
 [3]. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. www.lex.uz/docs/111189.
 [4]. Международные стандарты финансовой отчетности. Minfin.ru/ru/performance/accounting/mej_standard_fo/docs\09.02.2016
 [5]. 32-МСФО «Финансовые инструменты: предоставление информации». <https://finotchet.ru/articles/150/>

[6]. 1-son BHMS. "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot". <https://nrm.uz/>
 [7]. 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" <https://finotchet.ru/articles/132/>
 [8]. Maxmudov S. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. ...avtoref. – T., 2006. -22 b.
 [9]. Jabbarova Ch.A.Majburiyatlarni tan olishning ayrim jihatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, 1-son, yanvar www.e-itt.uz 347, 345-351-b.
 [10]. Tashnazarov S.N.. Korxonalar majburiyatlarini buxgalteriya balansida aks ettirishni takomillashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2016-yil
 [11]. Tashnazarov S.N. "Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1" darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2023.
 [12]. Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective. Irwin. USA. 1996. 339-340-6. Accounting Principles: A Business Perspective Paperback – February 16, 2018.
 [13]. О.Б. Фомина. Изменение концептуальных основ МСФО. <file:///C:/Users/SamISI-ATM/Desktop/34%20%20Фомина%20Фомин.pdf>
 [14]. <https://lex.uz/docs/4746047>